“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning oldini olish shakllari va usullarini takomillashtirish masalalari

Ulugbek Ashurov,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i adliya katta maslahatchisi, y.f.f.d. (PhD)
e-mail: u.ashurov@gmail.com

Doston Xonniyozov,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri
e-mail: d.xonniyozov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekistonda jinoyatchilikni oldini olish samaradorligini oshirishning dolzarb muammolaridan biri mazkur yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi bilan bog‘liq masalalarva jinoyatchilikka qarshi kurashishda akademik soha vakillarining o‘rni va ularning ilmiy, amaliy hamda innovatsion takliflari sezilmayotganligi sabablari tahlil qilingan. Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni profilaktika qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarining tarqoq ekanligi sababli sohaga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish taklifi ilgari surilgan.

Калит сўзлар. jinoyatchilik, jamoat xavfsizligi, kriminologiya, huquqbuzarlik, zo‘ravonlik, barqaror muhit

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы, связанные с отсутствием научных исследований в этих направлениях и роль представителей академической сферы в борьбе с преступностью и причины, по которым их научные, практические и инновационные предложения не воспринимаются как одна из актуальных проблем повышения эффективности профилактики преступности в Узбекистане. Также в связи с разрозненностью законодательства, направленного на регулирование отношений в сфере предупреждения и пресечения правонарушений, было выдвинуто предложение о разработке ряда нормативных правовых актов по отраслям.

Ключевые слова. преступность, общественная безопасность, криминология, правонарушение, насилие, устойчивая среда

Annotation. This article analyzes the problems associated with the lack of scientific research in these areas and the role of representatives of the

academic field in the fight against crime and the reasons why their scientific, practical and innovative proposals are not perceived as one of the urgent problems of improving the effectiveness of crime prevention in Uzbekistan. Also, due to the fragmentation of legislation aimed at regulating relations in the field of prevention and suppression of offenses, a proposal was put forward to develop a number of regulatory legal acts by industry.

Keywords. crime, public safety, criminology, delinquency, violence, sustainable environment

Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart sanasida “Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6196-son Farmoni qabul qilindi[1]. Ushbu Farmonda ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas'uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish hamda sohani to‘liq raqamlashtirishga erishish vazifasi belgilangan.

Qayd etish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi qarori bilan prokuratura organlari tomonidan ichki ishlar organlari bilan birgalikda mahallalar kesimida jinoyatlar aks ettirilgan tuman (shahar)larning elektron geoinformatsion xaritalari tuzilishi belgilangan bo‘lsa-da, bir qator tuman-shaharlardagi mahallalar kesimida elektron geoinformatsion xaritalar aksariyat o‘rinlarda shakllantirilmagan. Nazarimizda, oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda hududlardagi barcha mahallalar kesimida jinoyatlar, ayniqsa oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar aks ettirilgan tuman (shahar) larning elektron geoinformatsion xaritalari tuzilishi maqsadga muvofiq.

Biroq, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha akademik soha vakillarining o‘rni va ularning ilmiy, amaliy hamda innovatsion takliflari yetarli emas. Nazarimizda buning sababi quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

Birinchidan, u yoki bu turdagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari ilmiy doiralardan chetga chiqmayapti. Buning boisi, bizningcha, ishning akademik uslubda yozilganligi, tadqiqot doirasida chop etilgan maqolalar kam adaddagi ilmiy jurnallarda chop etilishi, shuningdek ularning xalqona uslubda bayon etilmasligi bilan bog‘liq.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ikkinchidan, ilmiy-amaliy grant va fundamental loyihalarning faqatgina Kriminologiya, qisman Jinoyat huquqi fani nazariyasi doirasida o‘tkazilishining yetarli emasligi;

Uchinchidan, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha sohalararo, fanlararo tadqiqot olib borilmasligi, bunday yondashuvning shakllanmaganligi, aksincha o‘tkazilayotgan tadqiqotlar muayyan shifr doirasidan chetga chiqishiga yo‘l qo‘yilmasligi;

To‘rtinchidan, vakolatli davlat organlari, nodavlat tashkilotlar tomonidan muayyan turdagi jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan buyurtmalarning mavjud emasligi;

Beshinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish ilmiy asoslangan, tadqiqotlar o‘tkazilgan holda emas, balki ma'muriy-buyruqbozlik tartibida amalga oshirilishi.

Alohida qayd etish kerakki, jinoyatchilikning oldini olish va ularni profilaktika qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan 20 dan ortiq qonunchilik hujjatlarining mavjudligi va ularning tarqoq holda ekanligi sohaga mas'ul organlarning o‘zaro bir-birini takrorlovchi funksiya va vazifalarni amalga oshirishiga, profilaktika qilish samaradorligi ortishiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda.

Ta'kidlash lozimki, olimlar tomonidan jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha turlicha qarash va fikrlar bildirilgan. Xususan, G. Nurmuxammedova va F.Amonovga ko‘ra, respublika miqyosida, hududlar va alohida bo‘limlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga mas'ul bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlovchi, ularning maxsus bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta'minlovchi, mansabdor shaxslarga korrupsiyaning zararli oqibatlarini tushuntiruvchi muntazam ravishda majburiy o‘qitish uchun ta'lim tizimini yaratish lozim [2].

Navbatdagi masala statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri va aniq shakllantirish bilan bog‘liq. Ma'lumki, bugungi kundagi mavjud statistikani shakllantirish mezonlari obyektiv holatni qamrab olmaydi. Joriy amaliyot 1972-yilda BMT tomonidan jinoyatchilik holati haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi murojaatidan kelib chiqib shakllantirilgan. Bugungi kundagi statistik kartochkalar va statistik ko‘rsatkichlar mezonlari (umumiy jinoyatchilik, alohida jinoyatlar turi, jinoyatchi shaxslar toifasi va boshq.) sobiq Sovet ittifoqi (1970) paytidan beri yuritiladi.

Biroq, jinoiy-huquqiy statistika dinamikasiga asoslangan ichki ishlar organlari faoliyatini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermaydi. Ichki ishlar organlari tomonidan yuritiladigan jinoyatchilik holati bo‘yicha statistik ma'lumotlar bilan har bir fuqaroning tanishish, shuningdek ularni onlayn rejimda kuzatish imkoniyati yaratilmagan.

Ta'lim jarayoni va ilm-fanning huquqni qo‘llash amaliyoti bilan uzviy integratsiyasini ta'minlash maqsadida:

- jinoyat-huquqiy statistika bilan tanishish tartibini soddalashtirish;
- jinoyatchilik va huquqbuzarlik holati yuzasidan ochiq ma'lumotlar bazasini kengaytirish, jumladan sodir etilgan jinoyatlar

boʻyicha barcha ma'lumotlarni oʻzida aks ettiruvchi e-criminalstat portalini ishga tushirish boʻyicha takliflar ishlab chiqish. Bunda jinoyatchilik holati, uning barcha kriminologik jihatlari, ya'ni jinoyatlar soni, turi, dinamikasi, jinoyat sodir etgan shaxsga oid ma'lumotlar (jinsi, yoshi, kasbi va b.), hududlar, ya'ni “Respublika–viloyat-tuman-shahar-mahalla” kesimida taqdim etishni yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq.

Tahlillarga koʻra, ichki ishlar organlarining jamoatchilik bilan aloqalari, faoliyati ochiqligi talab darajasida emas. Jumladan, Matbuot xizmati, Media-markazlar tashkil etilmaganligi, jinoyatchilik holati yuzasidan brifing va matbuot-anjumanlari oʻtkazilmasligi, tuman (shahar) IIOFMBlarining rasmiy veb-saytlari mavjud emasligi mazkur tizim faoliyati ochiqligini ta'minlashga salbiy ta'sir koʻrsatmoqda.

Shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatida qoʻllanilayotgan 102 tizimi ma'nan eskirgan, murojaatlarni qabul qilishda tizimli ravishda texnik uzilishlar bilan ishlaydi, ma'lumotlarni toʻldirish va yuborishga koʻp vaqt talab etiladi. Ma'lumki, 102 tizimida murojaatlar faqat telefon qoʻngʻirogʻi orqali qabul qilinadi, murojaat etishning muqobil shakllaridan foydalanilmaydi. Jumladan, nogironligi boʻlgan shaxslar (soʻzlash, koʻrish va eshitish)ning jinoyat haqida xabar berishiga imkoniyat yaratilmagan.

Hozirda profilaktika inspektorlari hamda aholi oʻrtasida axborot va ma'lumot almashishda Telegram va Facebook eng qulay vosita hisoblanadi. Biroq, barcha ichki ishlar idoralarining yuqoridagi kabi ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalari ochilmaganligi jinoyatchilikka qarshi kurashish va oldini olishga oid tezkor xabarlar keng auditoriyani qamrab olish imkonini bermayapti.

Shuningdek, oiladagi zoʻravonliklarning oldini olish, oilalardagi barqaror muhitni ta'minlash, aholi vakillarining huquqiy savodxonligini manzilli oshirish yuzasidan mahalla raisi rahbarlik qiladigan xotin-qizlar bilan ishlash va ularga nisbatan tazyiq va zoʻravonlikni oldini olish komissiyasi tashkil etilib, kelgusida notinch oilalarda ajrim holatlarning oldini olish; xotin-qizlar bilan ishlash va ularga nisbatan tazyiq va zoʻravonlikni oldini olish komissiyasi faoliyati orqali mahallalarda jabrlangan ayollarning huquqiy, ijtimoiy va psixologik himoyasini kafolatlash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, hozirda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etib, fuqarolik burchini bajargan shaxslarga nisbatan shaxslarni ragʻbatlantirish tizimi shakllantirilmagan. Shuningdek, huquqbuzarlik yoki jinoyat haqida xabar bergan shaxslarning qonunga itoatkor fuqaro sifatida emas, balki jamiyat a'zolariga zarar yetkazayotgan shaxs sifatida talqin qilinishi, ayrim ijtimoiy faol fuqarolar (deputatlar, diniy ulamolar va boshq.) tomonidan jamoaviy izza qilinishi mamlakatimizda mazkur institutlar rivojlanishiga toʻsiq boʻlmoqda.

Shu jihatdan jinoyatchilikning oldini olishda faol ishtirok etib, fuqarolik burchini bajargan shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

etganligi tufayli sodir etilishi mumkin boʻlgan turli tazyiqlarning oldini olish, huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni oʻzboshimchalik bilan jazolash, kiberbulling (ijtimoiy tarmoqlar orqali zoʻravonlik qilish) holatlariga barham berishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishda faol ishtirok etganlarni moddiy ragʻbatlantirish, “Huquqbuzarlikka qarshi kurash a'lochisi” koʻkrak nishonini ta'sis etish bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda keng jamoatchilik vakillarini qamrab olish hamda ularni ragʻbatlantirishga xizmat qiladi deb oʻylaymiz.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 21 мартдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони https://lex.uz/ru/docs/5344118

2. Феруз Салимович Амонов, Гўзалхон Баҳодировна Нурмуҳаммедова “Коррупция билан боғлиқ жиноятлар содир этилишига имкон берувчи шарт-шароитлар ва уларнинг олдини олиш масалалари // Academic research in educational sciences. 2022. №4.